



## Methods and means of modeling students' activities in mother language and reading literacy lessons

Nuriddin KIRGIZOV<sup>1</sup>

Namangan State Pedagogical Institute

### ARTICLE INFO

#### *Article history:*

Received October 2024

Received in revised form

15 November 2024

Accepted 15 December 2024

Available online

25 January 2025

#### *Keywords:*

school,  
primary classes,  
use of games through  
assignments in lessons,  
teacher's style,  
technical tools,  
exhibitions,  
handouts.

### ABSTRACT

The article discusses the goals and tasks of teaching native language reading literacy classes in elementary grades, the methods and tools used in the organization of the lesson process, and the formation of speech and linguistic competencies through various didactic and technical tools.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss6-pp395-399>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar faoliyatini modellashtirish shakllari va vositalari

### ANNOTATSIYA

Maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili o'qish savodxonligi darslarini o'qitishning maqsad va vazifalar foydalaniladigan metod va vositalar dars jarayonini tashkil qilishda turli xil didaktik va texnik vositalar orqali nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish haqida fikr yuritiladi.

#### *Kalit so'zlar:*

maktab,  
boshlang'ich sinflar,  
darslarda topshiriqlar orqali  
o'yinlardan foydalanish,  
o'qituvchi uslubi,  
texnik vositalar,  
ko'rgazmalar,  
tarqatmalar.

<sup>1</sup> Associate Professor, PhD, Namangan State Pedagogical Institute. E-mail: nuriddinkirgizov56@gmail.com

# Формы и средства моделирования деятельности учащихся на уроках родного языка и читательской грамотности

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

школа,  
начальные классы,  
использование игр через  
задания на уроках,  
стиль учителя,  
технические средства,  
выставки,  
раздаточные материалы.

В статье анализируются цели и задачи обучения грамоте и чтению на родном языке в начальных классах. Рассматриваются методы и средства, применяемые в организации учебного процесса, а также подходы к формированию речевой и языковой компетентности учащихся с использованием разнообразных дидактических и технических инструментов.

Bu boradagi muhim vazifa Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganidek, "umum ta'lim maktablari, litsey va kasb-hunar kollejlari, shuningdek, oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish sifati bilan bog'liq ekanini bugungi davr taqozo qilmoqda".

Hozirgi kunda har bir pedagog yoki ishlab chiqarish xodimi axborot kommunikatsiya texnologiyalari va texnik tizimlari majmuini puxta bilishi bugungi davr talabidir. Shu bilan bir qatorda pedagog ishlab chiqarishning faol ishtirokchisi, ishlab chiqarish mutaxassisi ham o'z navbatida pedagog vazifasini bajarishi lozim. Endigi muhim vazifa zamonaviy texnik ta'minotga ega ta'lim muassasalarida yuqori talablar darajasida innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida yoshlarimizga ta'lim-tarbiya berishdan iborat bo'lmog'i lozim. Buning uchun har bir pedagog o'z ustida mukammal ishlashi, zamondan orqada qolmasligi, o'qitishning innovatsion texnologiyalarini puxta bilishi va o'z faoliyatida joriy etishi zarur. Hozirgi kunda eski an'anaviy uslubdagi darslar yoshlarimiz ehtiyojini qondirmaydi, ular bunday darslarni tinglagisi ham kelmaydi. Bugungi globallashuv jarayonini va yoshlarimizning aqliy rivojlanishini tez sur'atlarda oshib borishini inobatga oladigan bo'lsak, metodikada kreativlik (ijodiy), mustaqil izlanishni taqozo etadigan metod va texnologiyalardan foydalanishimiz bugunning dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida mustaqil ta'lim yoki mustaqil izlanishli mashg'ulotlar amalga oshirib kelinmoqda. Lekin bunday mashg'ulotlarda o'z qonun-qoidalarga amal qilinmaydi, shuning uchun ham bu mashg'ulotlar kutilgan natijani bermaydi. Aslida bunday mashg'ulotlarda o'qituvchi o'quvchi, talaba yoki tinglovchilarga ma'lum bir vazifani maxsus sxema, formula, matematik tenglamalarni ko'rgazmali qurollar asosida beradi. O'quvchi (tinglovchi)lar bunda an'anaviy darslar kabi nazariyadan amaliyotga tomon emas, balki amaliyotdan nazariya tomon boradi va kreativ g'oyalar yaratadi, mavzu doirasida o'z xulosasini chiqaradi. Bunday texnologiyalar asosida ishlash ta'limda yuqori samara beradi. Mustaqil ishlashni talab etadigan pedagogikada bir qancha metod va texnologiyalar mavjud.

Bu borada biz boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini o'qitish orqali nafaqat leksik va grammatik me'yorlarni o'rgatuvchi, balki o'quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfografik me'yorlarni qo'llash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan fandır [1]. O'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o'qib tushunishga alohida e'tibor qaratiladi. Ona tili va o'qish savodxonligini puxta

o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtiradi. O'qish savodxonligi mukammal bo'lgan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri. Bunda matni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fani orqali o'quvchi shaxsida fikrlashga, o'z fikrini nutqiy va lingvistik kompetensiya asosida nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiya rivojlantiriladi;

o'quvchida til qurilishiga oid o'zlashtiriladigan amaliy bilimlar (fonetika, orfoepiya, leksika, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublariga oid tushunchalar) rivojlanadi.

Boshlang'ich sinflarda "ona tili va o'qish savodxonligi" fanini rivojlantirishda quyidagi vazifalar asosida amalga oshiriladi:

boshlang'ich sinflarda "ona tili va o'qish savodxonligi" fanining ilmiy metodik ta'minotini yaxshilash;

boshlang'ich sinflarda "ona tili va o'qish savodxonligi" fanining moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

boshlang'ich sinflarda "ona tili va o'qish savodxonligi" faning ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmani shakllantirish;

boshlang'ich sinflarda "ona tili va o'qish savodxonligi" fanining boshqa fanlar bilan o'zaro integratsiyasini tashkil etish;

boshlang'ich sinflarda "ona tili va o'qish savodxonligi" darsligini ta'lim jarayonini rivojlantirish uchun xalqaro talablarga mos elektron darsliklarni ishlab chiqishni tashkil etish;

fan doirasida o'rgatiladigan bilim, ko'nikma, malakalar mamlakatimiz rivoji uchun istiqbolli hamda yetuk mutaxassislarni tayyorlashning tayanch bosqichi sifatida xizmat qilishi;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, mavjud kadrlar ta'minotini modernizatsiyalashdan samarali foydalanish;

malaka talablarini, shuningdek, yangilangan ta'lim standartlari tatbiqi uchun egallanadigan ko'nikmalarni aniqlashning yangi usullarini joriy etish;

fanning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish;

savodxon, iqtidorli, teran fikrli o'quvchilarni aniqlash, baholash va rag'batlantirishga doir tanlov va ko'rgazmalarni tashkil etish;

ta'limning ilg'or amaliyotini ommalashtirish va "ona tili va o'qish savodxonligi" fanini o'qitishning shakllari xilma-xilligini rag'batlantirish;

ta'lim oluvchilarda milliy tafakkur va dunyoqarashni, mustaqil, mantiqiy, ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashga qaratilgan eng samarador ta'lim uslublarini ishlab chiqish;

milliy tilimizning o'ziga xos qurilishi talqinini o'z ichiga olgan ta'lim mazmunini yo'lga qo'yishdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda "ona tili va o'qish savodxonligi" fanini o'qitishning asosiy vazifasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlar (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalar)ni rivojlantirish;

ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrini to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish;

o'quvchilarda mantiqiy, obrazli, assotsiativ fikrlash, tafakkurning yuksalib borishini rivojlantirish;

o'quvchida to'g'ri talaffuz, imlo, uslub, so'z qo'llash (yangi so'zlarni o'zlashtirish, so'zlarni tanlash, so'zlarni to'g'ri qo'llash)ga doir ko'nikma, malakalarni, ko'nikmani malakaga, malakani odatga aylantirishni shakllantirish;

mumtoz so'z ma'nosidagi ma'rifat, ma'naviyat, qadriyatlarimizni yosh avlod ongiga singdirib borish, o'quvchilarimizda mantiqiy, obrazli fikrlash tafakkurning yuksalib borishini rivojlantirishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish hamda turli xildagi metod va usullardan foydalanish dars samaradodrligini oshiradi [2].

O'qituvchi ta'lim mazmunining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi jarayonini boshqaradi, nazorat qiladi, o'qitishning maqsadlariga erishilganlik darajasini aniqlaydi. Ta'lim maqsadiga erishish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy vazifalar, maqsadga erishish va umumiy natijalar orasidagi bosqichlarni qanday nazorat qilish, qanday yordamchi vositalarni qo'llash, ta'lim oluvchi haqida qanday ma'lumotlarni yig'ish, o'qitishning qanday usullarini qo'llash lozimligi, ta'lim oluvchining baho mezonlari qanday bo'lishi kabi ta'lim uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan elementlarni aniqlaydi [3].

Ma'lumki, ta'lim jarayonidagi bosh munosabat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatdir. Ijodiy ta'limda ham bu bog'lanish o'z shaklini o'zgartirgan holda asosiy o'rinni egallaydi. An'anaviy ta'limdagi bog'lanishlar qatoriga o'qituvchi va darslik, o'qituvchi va o'quv material, o'qituvchi va ko'rgazmali qurol, o'quvchi va darslik, o'quvchi va o'quv material, o'quvchi va ko'rgazmali qurol kabilar kirsa, kompyuterli ta'limda ularning shakli birmuncha o'zgaradi. Ona tili va o'qish savodxonligi ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalash maqsadida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi nuqtai nazaridan qaraganda o'qituvchi va darslik, o'qituvchi va o'quv material, o'qituvchi va ko'rgazmali qurol bog'lanishlari, tayyor loyihadan foydalanib dars o'tayotgan o'qituvchi nuqtai nazaridan qaraganda o'qituvchi va loyiha, o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'quvchi bog'lanishlari, o'quvchi va o'quv material bog'lanishlari amal qiladi.

Yangi materialni o'rgatish jarayoni o'quv materialining xususiyatlaridan kelib chiqib tashkil etiladi. Nazariy material hajm jihatidan keng bo'lmasa uni qismlarga bo'lmay o'rgatib, mustahkamlashga o'tgan ma'qul. O'quv material hajmi jihatidan keng bo'lib, uni o'zaro bog'langan qismlarga ajratib o'rgatish imkoniyati bo'lsa, qismlar

bo'yicha tushuntirish foydali bo'ladi [4]. O'quv materialini o'zaro mantiqan bog'langan qismlarga ajratib o'qitish o'zlashtirilgan bilimning tuzilishini mumkin qadar ongli his qilishga, bu bilimning oldin o'rganilgan bilimlar bilan aloqadorligini fikran tasavvur etishga olib keladi. Bularning barchasi o'qituvchi tomonidan o'quv materialiga pedagogik ishlov berish jarayonida hal qilinadi.

Ta'limda o'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompotensiyaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ularning o'zaro aloqadorligiga rioya qilish nihoyatda zarur hisoblanadi. Ona tili o'qish savodxonligi darslarida grammatika mashg'ulotlarida nutq maqsadiga muvofiq so'z tanlash yo'llarini o'quvchilarga o'rgatish, so'zlarning ma'nolarini ochish orqali o'quvchilar to'g'ri nutq tuzish sirlarini egallay boradilar. O'quvchi nutq maqsadiga muvofiq so'zlarni qancha tez tanlay olsa, nutq faoliyatida shuncha faol qatnashadi [5]. Maktabda ona tili grammatikasini izchil o'rganish natijasida o'quvchilarning nutq jarayonida faol qatnashishlarini taminlaydigan nutq qobiliyatlari tarkib topadi. Nutq qobiliyati nima, u qanday amalga oshiriladi kabi topshiriqlar beriladi. Hozirgi zamon psixologiyasi o'rganayotgan muammolardan biri shaxs qobiliyati masalasidir. Shaxs psixologiyasiga ko'ra "qobiliyat inson faoliyati talablariga javob bera oladigan shaxsiy individual xususiyatlarning sintezi"dir. Nutq qobiliyati inson qobiliyatining bir ko'rinishi sanaladi. Tilni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zaruriy qobiliyatlarni o'rganib chiqish va shu qobiliyatlar taraqqiyotiga bevosita ta'sir etadigan o'qitish tizimini yaratish ona tili ta'limi sohasida eng dolzarb muammo hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ikromova R. va boshqalar. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. –T.: O'qituvchi, 2012. -224 b.
2. Qosimova K. va b. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. –T.: "O'qituvchi", 2009. -215 b.
3. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov,. Ona tili va o'qish savodxonligi 3-sinf. –Toshkent, 2022. –144 b.
4. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Ona tili va o'qish savodxonligi 2-sinf. –Toshkent, 2021. –120 b.
5. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Ona tili va o'qish savodxonligi 1-sinf. –Toshkent, 2021. –104 b.